

TURKIYA RESPUBLIKASI TASHQI SIYOSATIDA YEVROPA ITTIFOQINING TUTGAN O'RNI

Ismoilov Raxmatjon Axmadjonovich

Andijon viloyati Marxamat tumani Xokim yordamchisi

Annotatsiya. *Tezisdagi Turkiya Respublikasi tashqi siyosatida Yevropa Ittifoqining tutgan o'rni tahlil qilinadi. Tahlil markaziga to'rt masala qo'yiladi: birinchisi, ikki tomonlama munosabatlarning boshlanishi va tarixiy taraqqiyoti; ikkinchisi, Yevropa Ittifoqiga yaqinlashish jarayoni Turkiyada inson huquqlari, demokratiya, qonun ustuvorligi va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga turki berganligi; uchinchisi, Yevropa Ittifoqi Turkiyaning eng yirik savdo hamkori ekanligi; to'rtinchisi, ikki tomonlama munosabatlardagi muammolar va ularning istiqbollari talqin qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Integratsiya, Anqara kelishuvi, bojxona ittifoqi, xavfsizlik, geosiyosat.*

KIRISH

Ma'lumki, Turkiya Respublikasi uzoq yillardan beri Yevropa Ittifoqiga qo'shilish uchun intilib kelmoqda. Asosan Ikkinchi jahon urushidan keyin Yevropada tuzilgan tashkilotlarga a'zo bo'lgan Turkiyaning, 1959-yilda Yevropa iqtisodiy hamjamiyatiga a'zolik uchun murojaatidan keyin boshlangan jarayon hozirgi paytda ham davom etmoqda. Biroq, Turkiyaning a'zoliq noma'lumligicha qolmoqda. Shunday bo'lishiga qaramay, Turkiya YI dan umid uzmaganda, ittifoq tomonidan ilgari surilgan talablarni bajarishga intilishi mamlakat tashqi siyosatida YIning muhim o'rin egallashidan dalolat beradi. Bu maqsadda mamlakatning Yevropa hamjamiyati bilan integratsiyalashuvini majburiy qiluvchi jihatlarni tadqiq etish Turkiya–YI munosabatlarining mohiyati jihatidan katta ahamiyatga egadir. Shu bois, ikki tomonlama munosabatlarni tahlil etish mamlakatning hozirgi davrdagi g'arbga qaratilgan tashqi siyosiy faoliyatini chuqur o'rganishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

ASOSIY QISM

Turkiyaning Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyatiga qo'shilishini birinchi navbatda uning an'anaviy vesternizatsiya (g'arblashtirish) siyosatining davomi deb baholash mumkin. Bunga, 1963-yilda Turkiyaning a'zoliq bo'yicha ikki tomon o'rtasida imzolangan Anqara shartnomasining turk matbuotida Tanzimat davridan e'tiboran 150 yil davomida amalga oshirilgan vesternizatsiya hamda G'arb dunyosining teng huquqli a'zosi bo'lish uchun olib borilgan harakatlardagi ijobiy qadam sifatida aks etganligi [1] yorqin misol bo'la oladi.

Shuningdek, Turkiyaning Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyatiga a'zolik uchun murojaatida Gretsiyaning ta'siri katta bo'lganligini ta'kidlash lozim. NATODA ittifoqdosh bo'lgan bu ikki davlat boshidan e'tiboran Yevropadagi integratsion



jarayonlarga nisbatan parallel siyosat olib borgan. Turkiya Gretsiyaning o'zi a'zo bo'lgan tashkilotga kirishi orqali siyosiy va iqtisodiy jihatdan nisbiy ustunlikka erishishini aslo xohlamaydi. Buning natijasida Turkiya ham Gretsiyani ta'qib qilgan holda 1959 yilda YIH (Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati) ga a'zolik uchun murojaat qildi. Turk siyosatshunosi E. Kongar buning sababini quyidagilardan iborat ekanligini ta'kidlaydi:

A) Gretsiyaning asosiy eksport mahsulotlari Turkiyaniki bilan bir xil. Yelga a'zo bo'lgan Gretsiya Turkiyaning an'anaviy ba'zi bozorlarini qo'lga kiritishi mumkin.

B) Gretsiyaning YIHga qabul qilinishi uning iqtisodini va bunga bog'liq holda ichki siyosiy strukturasi kuchayishiga olib keladi. Bu holat NATO kabi ikki davlat ham a'zo bo'lgan xalqaro platformalarda uning Turkiyaga nisbatan muhimroq davlatga aylanishiga olib kelishi mumkin. [2]

1981-yilda YIHga to'liq a'zo bo'lgan Gretsiya [3] Turkiyadan o'zib ketdi va unga nisbatan kuchliroq mavqega ega bo'ldi. Bunday vaziyatda Turkiya Gretsiya bilan raqobatda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. 1981-yilda YIHga to'liq a'zo bo'lgan Gretsiya Turkiyadan o'zib ketdi va unga nisbatan kuchliroq mavqega ega bo'ldi. Bunday vaziyatda Turkiya Gretsiya bilan teng huquqqa ega bo'lish, hamda, ikki davlat o'rtasidagi mavjud muammolarning Gretsiya foydasiga hal bo'lishiga yo'l qo'ymaslik uchun Hamjamiyatga a'zo bo'lishga harakat qiladi.

Shu bilan birga, Turkiyani Hamjamiyatga yaqinlashuviga turtki bo'lgan boshqa bir jihat mamlakat ichkarisidagi vaziyatdir. Ma'lumki, Turkiyada 60-yillardan e'tiboran har o'n yilda harbiylar tomonidan amalga oshirilgan davlat to'ntarishi mamlakatdagi plyuralistik va demokratik tizimning zarar ko'rishiga, hamda inson huquqlarining poymol bo'lishiga olib keldi. Bunday vaziyatda siyosiy partiya va guruhlar harbiylarning siyosatga aralashuvining oldini olish, mamlakatdagi siyosiy barqarorlikni ta'minlash va demokratiyaning taraqqiyoti uchun YIga qo'shilish shart ekanligini ilgari sura boshladi. Chunki YIH bilan integratsiya mamlakatda birinchi navbatda demokratik tamoyillarning qaror topishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Turkiya Yevropadan uzoqlashgan taqdirda mamlakatda diniy fundamentalizmning kuchayishi, diniy guruhlarining faoliyati ortishi mumkin. Bu nafaqat Turkiyaga, balki YIning mintaqadagi manfaatlariga ham zid natijalar keltirib chiqaradi.

Turkiyaning YIHga yo'nalishida yuqoridagi siyosiy sabablar bilan birga iqtisodiy omilning ham ta'siri katta bo'lgan.

Turkiyaning YIH ga bo'lgan e'tiborining shakllanishida mamlakat ichkarisidagi iqtisodiy inqirozdan qutulishni osonlashtiradigan ba'zi imkoniyatlarni qo'lga kiritishi mumkinligi borasidagi umidlari ham rol o'ynagan. Yevropa integratsiyasi tezlashgan va YIH doirasida bir Yevropa umumiy bozori qurilgan yillar Turkiyaning iqtisodiy jihatdan yuqori darajada qaram holga kelgan AQSH bilan munosabatlari keskinlashgan bir davrga to'g'ri keldi. Tashqi moliyaviy munosabatlarida katta nisbatni olgan AQSHdan kelgan iqtisodiy yordamlarning kamayishi va ba'zi shartlarga bog'lanishi



Turkiyani o‘ziga uzoq muddatli kredit ochadigan yangi manbalarni izlashga undadi. Bu doirada 1950-yillar oxirida Turkiya YIHni o‘zini iqtisodiy inqirozdan qutqaruvchi xaloskor shaklida ko‘ra boshladi. Bu tamal iqtisodiy omilni kuchaytirgan uchta yordamchi omildan bahs etish mumkindir:

Birinchisi: iqtisodiy integratsiya va umumiy bozor kabi terminlar asta-sekin butun dunyoda qiziqish uyg‘otdi va bu kabi tashabbuslarning muvaffaqiyatli bo‘lishiga ishonch yanada kuchaydi.

Ikkinchisi: YI a‘zolari an‘anaviy shaklda Turkiyaning tashqi savdosida eng ko‘p ulushga ega bo‘lgan davlatlardan tashkil topgan edi. Turkiya bu davlatlarning tijorat qoidalari va mexanizmlari haqida to‘liq ma‘lumotga ega edi.

Uchinchisi: YIH mamlakatlarining geografik yaqinliklari sababli Yevropa tovarlarining Yaqin Sharq va Afrikaga eksportida Turkiyadan bir chiqish nuqtasi sifatida foydalanishlari mumkinligi va buning Turkiyaning tijoriy daromadini oshirishi mumkinligi tushunchasi YIH bilan iqtisodiy hamkorlik o‘rnatish fikrini qo‘llab-quvvatlar edi.

Ma‘lumki, turk iqtisodining asosiy muammolaridan biri sarmoya yetishmasligidir.

80-yillarda Turkiyada T. O‘zal tomonidan amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar natijasida Xalqaro Valyuta Fondi va boshqa xalqaro moliyaviy tashkilotlardan mamlakatga katta miqdorda sarmoya kiritilgan bo‘lsa-da, bu muammoga yechim topilmadi. Agar Turkiya YIga to‘liq a‘zo bo‘lsa, xorijiy sarmoyaning mamlakatga kirishi tezlashadi. Chunki Turkiya yirik mahsulot bozori hamda YI davlatlariga nisbatan arzon ishchi kuchiga ega. A‘zolikning boshqa bir foydasi Hamjamiyatning moliyaviy yordam dasturlaridan foydalanish imkonidir.

Turk iqtisodining YI davlatlari bilan bo‘lgan savdo-iqtisodiy aloqalarga qaramligi Ittifoq bilan integratsiyani majburiy qiladi. YI davlatlari Turkiyaning import va eksportida 50 %, bevosita kiritilgan xorijiy investitsiyalarda esa 2/3 hissaga ega. Turkiyada faoliyat ko‘rsatuvchi xorijiy sarmoyaga ega bo‘lgan shirkatlarning deyarli yarmi Yevropa aslidir. [4]

“Radikal” gazetasi muxbiri M. Yegilmaz Turkiyaga 1980-yildan 2002-yilgacha jami 18 milliard dollar bevosita xorijiy sarmoya kirganligini, bu bir yilda o‘rtacha 783 million dollarga to‘g‘ri kelganligini, 2003-yildan 2008-yilgacha bo‘lgan davrda esa jami 64,5 milliard dollar miqdorida xorijiy sarmoya mamlakatga kirganligini, bu davrning yillik o‘rtalamasi 11,7 milliard dollarni tashkil etganligini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, buning asosiy sababi 2003-yildan e‘tiboran YI bilan boshlangan muzokaralar jarayonidir. [5]

Shuningdek, mamlakatdagi kasaba uyushmalari va xususiy sektor vakillariga ko‘ra, sanoatlashtirishni kuchaytirish, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish, yuqori saviyadagi ishsizlik darajasini pasaytirish, mamlakatning yanada gullab-yashnashi, parlamentar demokratiya va birlashmalar huquqlarini mustahkamlashda a‘zolik katta ahamiyatga ega. YH bilan integratsiyaning davom etishi natijasida Turkiya uchun YI da





yirik va barqaror mahsulot bozori ochilishi, mamlakatga yangi texnologiya va muhim know-howlarning kirib kelishi hamda bu shaklda turk sanoatining Yevropa standartlariga moslashuvi uchun imkon yaratiladi. [5]

Agar Turkiya YIga a'zo bo'la olmasa, Kipr kabi Arman genotsidi, kurd muammosi va iqtisodiy barqarorlik masalalari yanada chigallashadi. Ya'ni Turkiyaning siyosiy, iqtisodiy va huquqiy muammolarining yechimi YIga a'zolik bilan aloqalidir. Shuningdek, mamlakatdagi siyosiy va iqtisodiy islohotlarning davom etishi uchun a'zolik motivatsiyasiga ehtiyoj bor.

“Turkiyaning YIga a'zolik jarayoni faqat bir tashkilotga kirish yoki kirmaslik emas, ayni paytda o'z davlat strukturasi qanday shaklda bo'lishini tanlash masalasidir. Turkiya davlat strukturasi shaffoflashtirib, global qadriyatlarga mos hamda shaxs va jamiyat erkinliklari va farovonligi asosida qurilgan tizim yoki kuchli milliy davlatchilikka tayangan tizim o'rtasida o'z xohish-irodasini bayon qilishi lozim”, — deydi turk siyosatshunosi X. Ishiksal.

XULOSA VA MUNOZARA

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shuni ta'kidlash lozimki, YIga a'zolik Turkiya Respublikasi tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan birini tashkil etadi. Biroq, bu masala faqat bir tomonning xohish-irodasiga bog'liq emas. Turkiyaning a'zoligi boshqalarnikidan tubdan farq qiladi va o'ziga xos xususiyatlarga ega. YI ushbu mamlakatni hanuzgacha o'z safiga qo'shmayotgan bo'lsa-da, uni butunlay rad etishni ham xohlamayapti. Yevrokomissiya 2005-yil 3-oktabrdan e'tiboran Turkiya bilan uning a'zoligi bo'yicha muzokaralarni boshlashni e'lon qildi. Biroq, kengayish masalasi bo'yicha Yevrokomissiya komissari Olli Ren muzokaralar uchun rasmiy sana belgilanishi ushbu muzokaralardan Turkiya uchun ijobiy natija chiqishini kafolat ostiga olmasligini ta'kidladi. Unga ko'ra, Yevropaga barqaror va demokratik Turkiya kerak.

Demak, Turkiya uchun YI tomonidan talab etilgan islohotlarni amalga oshirishda davom etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Zuhul Yeşilyurt Gündüz, Turkey's Approach Towards The EU:Views From Within, Perceptions, Journal of International Affairs, September-November 2003, Volume VII·Number 3 p.106
2. Emre Kongar. XXI Yüzyılda Türkiye . Istanbul., 1998 y., s. “143
3. Ю. Борко, Расширение и углубление Европейской интеграции, Мировая Экономика и Международные Отношения, 2004, №7, с.15
4. Editör:Irfan Kalaycı, Avrupa Birliği Dersleri: Ekonomi-Politika-Teknoloji .Ankara.2006. s.102
5. Mahfi Eğilmez, Doğrudan Yabancı Sermaye Girişleri, Radikal Gazetesi , 19.08.2008





6. Zuhul Yeşilyurt Gündüz, Turkey's Approach Towards The EU:Views From Within, Perceptions, Journal of International Affairs, September-November 2003, Volume VII•Number 3 p.120-121

7. Avrupa Birligi Dersleri: Ekonomi-Politika-Teknoloji / Editör İrfan Kalaycı. Ankara. 2006. S.299

